



**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION,
SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**“ISSUES AND CHALLENGES OF MODERN
LINGUISTICS IN NEW UZBEKISTAN:
LINGUOCULTUROLOGICAL,
PRAGMALINGUISTIC,
NEUROPSYCHOLINGUISTIC AND
LINGUOFOLKLORISTIC APPROACHES”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC &
THEORETICAL CONFERENCE**



PKP|INDEX

BUKHARA -2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O‘ZBEKISTON TILSHUNOSLIGIDA
LINGVOKULTUROLOGIYA, PRAGMALINGVISTIKA,
NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA LINGVOFOLKLORISTIKA
SOHALARINING DOLZARB MUAMMOLARI”**

(Filologiya fanlari doktori, professor R.R. Boboqalonov tavalludining 65 yilligiga bag' ishlanadi)

**XALQARO ILMIY-NAZARIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**

©Buxoro davlat universiteti
©Fransuz filologiyasi kafedrası

Buxoro-2024

UO'K 81'373

81.1-3

G 13

Yangi O'zbekiston tilshunosligida lingvokulturologiya, pragmalingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalarining dolzarb muammolari (Filologiya fanlari doktori, professor R.R.Bobokalonov tavalludining 65 yilligiga bag'ishlanadi): maqola va tezislar to'plami, to'plovchi hamda nashrga tayyorlovchilar: O.O.Bobokalonov, N.B.Kuldasheva, N.N.Abdullayeva; Buxoro; "Durdona" nashriyoti, 2024 yil, 856 bet.

KBK 81.1-3

❖ Filologiya fanlari doktori (DSc), professor **R.R. Bobokalonov** umumiy tahriri asosida

Bosh muharrir:

O.O. Bobokalonov, f.f.f.d. (PhD), dotsent

Mas'ul muharrirlar:

M.H.Xamidova, f.f.f.d. (PhD), dotsent

M.M.Jo'rayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent

D.B.Narzullayeva, Fransuz filologiyasi kafedrası tadqiqotchisi

Texnik muharrirlar:

B.Q.Akramov, Fransuz filologiyasi kafedrası tadqiqotchisi

R.O.Bobokalonov, Fakultetlararo chet tillar kafedrası tadqiqotchisi

S.T.Temirov, Fransuz filologiyasi kafedrası ilmiy-texnik assistenti

Tahririyat manzili:

Buxoro davlat universiteti, M.Iqbol ko'chasi 11-uy

Tashkiliy qo'mita manzili:	Tashkiliy qo'mita mas'uli:
Buxoro davlat universiteti Buxoro shahar M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel: (+998) 65 221-29-14 Fax: 8(365) 221-27-07 Elektron pochta manzili: buxdu_rektor@buxdu.uz	Fransuz filologiyasi kafedrası mudiri Bobokalonov Odilshoh Ostonovich Tel: (+998) 91 242-33-32 (+998) 97 304-33-32 Telegram ID: @OdilshohOstonovich Elektron pochta manzili: o.o.bobokalonov@buxdu.uz

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20-martdagi 76-son farmoyishining 1-ilovasi "2024 yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi"ga ko'ra anjuman o'tkazildi va chop etildi

ISBN 978-9943-6197-4-6



@buxdu_uz

buxdu1

buxdu

@buxdu.uz-official

BuxDU Matbuot xizmati

@buxdu_uz

buxdu1

buxdu

@buxdu.uz-official

BuxDU Matbuot xizmati

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universiteti tomonidan "Yangi O'zbekiston tilshunosligida lingvokulturologiya, pragmlingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalarining dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman 2024-yil 16-17-aprel kunlari o'tkazildi. Mazkur Xalqaro anjumanimizda Oliy o'quv yurtlari hamda ilmiy-tekshirish instituti olimlari, yetuk mutaxassislar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar, talabalar, xorijiy mamlakat olimlari ishtirok etishdi.

Anjuman maqsadi tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, pragmlingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalaridagi taniqli tadqiqotchilar va mutaxassislarni birlashtirgan yuqori darajadagi akademik almashinuvlar ta'minlashdan iborat.

Anjumanda muhokama qilingan yo'nalishlar va sohalar:

❖ TILSHUNOSLIK

- ❖ Nazariy tilshunoslik
- ❖ Amaliy tilshunoslik
- ❖ Qiyosiy tilshunoslik
- ❖ Chog'ishtirma tilshunoslik
- ❖ Umumiy tilshunoslik
- ❖ Matn tilshunosligi
- ❖ Zamonaviy tilshunoslik
- ❖ Tarixiy tilshunoslik

❖ ADABIYOTSHUNOSLIK

- ❖ Lingvofolkloristika
- ❖ Lingvopoetika

❖ TIL VA PEDAGOGIK TA'LIM

- ❖ Pedagogika
- ❖ Didaktika

- ❖ Lingvomadaniyatshunoslik
- ❖ Psixolingvistika
- ❖ Neyrolingvistika
- ❖ Neyropsixolingvistika
- ❖ Pragmlingvistika
- ❖ Etnolingvistika
- ❖ Sotsiolingvistika
- ❖ Kognitiv lingvistika

- ❖ Lingvostilistika
- ❖ Narratologiya

- ❖ Metodologiya
- ❖ Metodika

Ilmiy-nazariy anjuman quyidagi sho'balarda ish olib bordi:

1-SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK MASALALARI:

O'zbek va xorijiy tillar muhitida vujudga kelgan zamonaviy til yo'nalishlari, sintaktik va semantik rivojlanishlarni chuqur tahlil qilish hamda til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi ilg'or tilshunoslikning dolzarb muammolari tadqiqi yoritiladi.

2-SHO'BA. NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIKA DOIRASIDAGI ILMIY IZLANISHLAR:

Tilshunoslikning turli ijtimoiy-madaniy sharoitlarida tilning pragmatik qo'llanilishiga oid tadqiqotlar hamda Yangi O'zbekistonga xos bo'lgan lingvistik jihatlar va neyropsixologik faoliyati o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga urg'u beriladi.

3-SHO'BA. ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA LINGVOFOLKLORISTIKA TADQIQOTLARI:

O'zbek xalq og'zaki ijodi va jahon folklorida ildiz otgan til an'alarini tekshirish, ayniqsa, og'zaki rivoyatlarga va lingvistik avloddan avlodga o'tishga jihatlariga e'tibor qaratiladi.

4-SHO'BA. TIL VA TA'LIM:

Tilshunoslik, filologiya va barcha ta'lim sohaları oldida turgan farqli va mushtarak ilmlarni tadqiq etishga asosiy urg'u beriladi.



MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY
FRENCH PHILOLOGY DEPARTMENT



“Issues and challenges of modern linguistics in new Uzbekistan: Linguoculturological, pragmalinguistic, neuropsycholinguistic and linguofolkloristic approaches”




INTERNATIONAL SCIENTIFIC & THEORETICAL CONFERENCE

April 16-17, 2024
Bukhara

Participating
Higher Education Institutions
countries

Uzbekistan, France, Great Britain, Russia, China, Cameroon, Germany, Italy, Spain, Belgium, South Korea, Kazakhstan, Tajikistan, Kyrgyzstan


BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI
2021



<i>Nishonov P.P.</i> Rus va slavyan antroponimlarining milliy – madaniy qirralari.....	169
<i>Sanoqulov J.X.</i> Zamonaviy tilshunoslik multimadaniy muhitining fransuz nutqidagi ta’sir ko’lami.....	173
<i>Sanakulov H.Kh.</i> Évolution sémantique des termes psychologiques en français au cours des dernières décennies.....	181
<i>Sayfullayev B.N. & Abdusalomova M.A.</i> O‘zbek va fransuz tillarida so‘roq gaplarning yasalishi va o‘zlashtirmalik xossalari.....	190
<i>Sayfullayev B.N. & Isroilova X.N.</i> O‘zbek va fransuz tillari ot so‘z birikmali gap va o‘zlashtirmalik xossalari....	194
<i>Sayfullayeva R.R.</i> Milliy tilimizni yuksaltirish davri	199
<i>Sodiqov M.S.</i> Fransuz va o‘zbek tillarida tejamkorlik va ortiqchalikning ifodalanishi.....	204
<i>Tairova M.Kh. & Hakimov B.S.</i> Caractéristiques sémantiques des termes pharmaceutiques en langues russe et français.....	208
<i>Teshaeva D.</i> Linguistic and cultural challenges in the field of linguoculturology in contemporary Uzbekistan.....	213
<i>To‘yboeva Sh. R. & Normurotova F.O’.</i> Qiyosiy tillar kesimida ko‘plik kategoriyasining badiiy kontekstda namoyon bo‘lishi.....	216
<i>Turgunbaeva G.T.</i> Analyzing gastronomic tourism terms and conditions.....	222
<i>Умурзакова Ш.Г.</i> Направления современной лингвистики: язык и культура.....	228
<i>Usmonova N.S.</i> Fransuz an’alarida “Vodiy nilufari - le muguet de mai”ning madaniy-tarixiy timsoli.....	232
<i>Valieva N.Z</i> Linguocultureme as a fundamental concept in Linguoculturology (on the material of English, Russian and Uzbek languages).....	237
<i>Xolova Sh.D. & Rahmatova M.H.</i> Salbiy emotiv frazemalar tarjimasida lingvomadaniy xususiyatlar.....	241
<i>Xusinova Sh.X.</i> Sociocultural significance and communicative function of nicknames in the English language...245	
<i>Yakubov J.A.</i> Ayollar nutqidagi “va’da berish” leksemasi tarjimada ifodalanishining funksional semantik xususiyatlari	250
<i>Yang Bai (Ян Бай)</i> Анализ национально-культурных особенностей фразеологизмов с компонентом-лошадью в китайском языке.....	255
<i>Yaxshiboev M.D.</i> Siyosiy lingvistikaning rivojlanish bosqichlari.....	261
<i>Zokirova D.M., Djumabaeva M.A. & Salimova M.S.</i> Cognitive linguistics and Concept.....	266
<i>O‘rinboeva G.D.</i> Turli tizimli tillarda so‘z fonologik strukturasi xususiyatlari qiyosiy tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida).....	273
2-SHO‘BA. NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIKA DOIRASIDAGI ILMIY IZLANISHLAR.....	279
<i>Akramov B.Q. & Abdullayeva A.U.</i> Interprétation sociale du lexique français des marchés et des processus commerciaux.....	280
<i>Akramov B.Q. & Muhidov A.Sh.</i> Caractéristiques étymologiques de la terminologie commerciale en français.....	287
<i>Adizova O.I. & Gulyamova R.K.</i> Fransuz tilida “fidélité” (sadoqat) termini ishtirokidagi iboralarning leksik-semantik tahlili.....	294
<i>Adizova O.I. & Rahmatova Z.M.</i> Fransuz tilida sifatlarning grammatik kategoriyalari.....	300
<i>Alimova S.S.</i> Murojaat shakli sifatida qo‘llaniluvchi turdosh otlarning pragmatik aspekti.....	305

O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA SO‘ROQ GAPLARNING YASALISHI VA O‘ZLASHTIRMALIK XOSSALARI



 Buxoro, O‘zbekiston



Sayfullayev Baxshillo Nematulloevich

Mustaqil tadqiqotchi, fransuz tili o‘qituvchi

Fransuz filologiyasi kafedrası

Xorijiy tillar fakulteti

Buxoro davlat universiteti

✉ b.n.sayfullayev@buxdu.uz

 <https://scholar.google.com/citations?user=DTm420UAAAAJ&hl=fr&oi=ao>



Abdusalomova Madina Alisher qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish (fransuz tili)

ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Xorijiy tillar fakulteti

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz tillarida so‘roq so‘zlar va ularning o‘zlashtirma gaplarga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘zlashtirma gap tushunchasi, ularning ko‘chirma gaplardan farqi aniqlanib, o‘zbek va fransuz tillaridagi so‘roq gaplar misol asosida taqqoslanadi. Shuningdek, o‘zlashtirma gaplarning ko‘chirma gaplarga nisbatan afzalliklari oydinlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: so‘roq so‘zlar, o‘zlashtirma gaplar, ko‘chirma gaplar, o‘zbek tili, fransuz tili.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросительные слова в узбекском и французском языках и их характерные особенности. В статье определяется понятие притяжательных предложений, их отличие от заимствованных предложений, а также на основе примеров сравниваются вопросительные предложения в узбекском и французском языках. Также выясняются преимущества притяжательных предложений по сравнению с производными предложениями.

Ключевые слова: вопросительные слова, заимствованные предложения, заимствованные предложения, узбекский язык, французский язык.

Abstract: In this article, interrogative words in Uzbek and French languages and their characteristic features are analyzed. The article defines the concept of possessive sentences, their difference from borrowed sentences, and compares interrogative sentences in Uzbek and French languages on the basis of examples. Also, the advantages of possessive sentences compared to derived sentences are clarified.

Key words: interrogative words, borrowed sentences, borrowed sentences, Uzbek language, French language.

Kirish

So‘roq gaplar hamda o‘zlashtirma gaplar har qanday tilda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali nutqda jozibadorlik va ifodalilikka erishish mumkin. So‘roq gaplarda so‘zlovchi uchun noma‘lum va notanish bo‘lgan biror narsa, harakat-holat haqida ma‘lumot so‘rash nazarda tutiladi. Shu bilan birga, suhbatdoshining o‘z fikrini anglatishga yoki ifodalanayotgan fikrga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. [1,103b]

Asosiy qism

O‘zlashtirma gaplar ko‘chirma gaplar singari boshqa odamlar fikrlarini ifodalash uchun ishlatilsa-da, ammo ular orasida farqlar mavjud. Bu farqlarni aniqlash orqali o‘zlashtirma gaplardan unumli foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz tillaridagi so‘roq gaplar hamda o‘zlashtirma gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi farqlar aniqlanadi.

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlaridan biri bu so‘roq gap bo‘lib, u so‘zlovchining biror noma‘lum va noaniq narsa hodisani bilish uchun tinglovchiga murojaatini ifodalovchi, so‘roq mazmunli gap. So‘roq gaplarda suhbatdoshning o‘z fikrini anglatishga yoki ifodalanayotgan fikrga bo‘lgan munosabatini bildirishga chaqiriladi.

Usullar va adabiyotlar tahlili.

O‘zbek tilida so‘roq gaplar quyidagi yo‘llar orqali yasaladi:

1) So‘roq yuklamalari yordamida (-mi, -chi, a(ya), -ku)

Masalan: *-Shu choqqacha hamma ishni ketmon bilan bitira olmabsiz-ku?*
(A.Qahhor).

2) So‘roq olmoshlari yordamida (qachon? kim? nima? qachon? qayer?....)

Masalan: *Shu choqqacha qaysi burchakda mog‘or bosib yotgan edingiz?*
(A.Qahhor).

3) Intonatsiya (ohang) yordamida. [2, 302b]

Masalan: *Familiyangiz? Ismingiz? Kecha ko‘rinmadingiz?* (A. Qahhor)

Fransuz tilida so‘roq gaplar quyidagi yo‘llar yordamida yasaladi.

1) So‘roq olmoshlari yordamida: (quand? quel? qui? que? ou?)

Misol uchun: *-Ou habitez-vous?*

2) Inversiya (ega va kesimning o‘rni almashishi) yordamida

Misol uchun:

Question : *Avez-vous compris ?*

Réponse : *Oui, j’ai compris. / Non, je n’ai pas compris.*

3. Intonatsiya(ohang) yordamida.

Bu so‘roqning eng oddiy shakli bo‘lib, so‘zlashuv tilida qo‘llaniladi. Bunda intonatsiya (ovoz ko‘tariladi) bu savol ekanligini tushunishga imkon beradi.

Masalan: *Tu aimes aller au cinéma. → Tu aimes aller au cinéma ?*

Natijalar va muhokama.

So‘roq olmoshlari orqali gaplar hosil qilganda quyidagilarni unutmaslik lozim:

1. Qui va qui est-ce qui so‘roq olmoshlari bilan boshlangan gaplarda fel 3-shaxs birlikda tuslanadi:

Qui vous la dit? – Sizga buni kim aytdi?

2. To‘ldiruvchi qui bilan boshlangan so‘roq gapning egasi ot bilan ifodalangan bo‘lsa, murakkab inversiya qilinadi:

Qui cherche ce garçon? – Kim bu bolani qidiryapti?

Qui ce garçon cherche-t-il? – Bu bola kimni qidiryapti?

3. Agar so‘roq gap est-ce que bilan tuzilgan bo‘lsa, inversiya qilinmaydi:

Qui est-ce que ce garçon cherche? – Bu bola kimni qidiryapti?

4. Qui est-ce que, qui est-ce qui, ... bilan tuzilgan so‘roq gaplar og‘zaki nutqda tez-tez uchraydi.

“Lequel” murakkab so‘roq olmoshi o‘zbek tiliga qaysisi so‘zi bilan tarjima qilinadi. U aniq artikllar va quel so‘roq olmoshining birikishidan hosil bolgan.

Lequel soroq olmoshi ikki yoki undan ortiq predmetdan birini korsatish maqsadida ishlatiladi:

Lequel de ces livres est à vous? – Bu kitoblardan qaysi biri sizniki?

Je voudrais prendre une de ces pommes. – Laquelle?

Men bu olmalardan birini olmoqchiman. – Qaysini?

Eslatma: Murakkab so‘roq olmoshlari de va à predloglari bilan tutashadi:

Auquel de vos camarades voulez-vous donner ces billets?

Duquel de vos élèves êtes-vous surtout mécontent? [3, 63b]

Tahlil

O‘zlashtirma gaplarda muallif boshqalarning gapini grammatik va leksik xususiyatlarini o‘zgartirgan holda o‘zlashtirib, hikoya qilib beradi. O‘zlashtirma gap ko‘chirma gapdan intonatsiya (ohang) si va ayrim fe‘l formalarining ishlatilmasligi bilan ajralib turadi. *Demoq* fe‘lining ko‘chirma gapda juda ko‘p qo‘llaniladigan *deb*, *dedi*, *deydi*, *degan edi* kabi shakllari o‘zlashtirma gapda deyarli qo‘llanmaydi. Uning o‘rnida aytmoq, gapirmoq fe‘llari ishlatiladi.

Masalan: Astaxov chol bilan suhbatlashishni ko‘pdan buyon orzu qilganini, lekin qo‘li tegmaganini aytdi. (Oybek)

Nutq o‘zlashganda muallif gapi va ko‘chirma gaplar que, si, de hamda bog‘lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar orqali bog‘lanadi [4, 69b]. Fransuz tilida o‘zlashtirma gapni ko‘chirma gapga aylantirishning bir necha usullari va qoidalari mavjud:

1. Agar ko‘chirma gap ega bilan bog‘langan bo‘lsa va darak gap bo‘lsa o‘zlashtirma gap “*que*” bog‘lovchisi bilan bog‘lanadi.

Masalan: *Il dit: "Il fait beau aujourd’hui"*

→ *Il dit qu’il fait beau aujourd’hui*

2. Agar ko'chirma gapda est-ce-que, inversiya yoki so'roq gap ishtirok etgan bo'lsa "si" bog'lovchisi bilan bog'lanadi.

Masalan: *Je te demande: "Est-ce-que tu iras au musée avec nous"*

→ *Je te demande si tu iras au musée avec nous.*

3. Agar ko'chirma gapda so'roq so'zlar (olmoshlar) kelsa gap aynan o'sha so'roq olmoshlari bilan o'zlashtirilib big'lanadi.

Masalan: *Mon ami m'a demande: "Quand viens-tu chez moi"*

→ *Mon ami m'a demande quand je venais chez lui.*

4. Agar ko'chirma gap buyruq formada bo'lsa o'zlashtirma gap de + infinitif shaklida o'zlashtiriladi.

Masalan: *Le professeur nous dit: "Ouvrez vos livres et écrivez la dictée"*

→ *Le professeur nous dit d'ouvrir nos livres et d'écrire la dictée*

Xulosa

Har ikkala tilda ham gaplar o'zlashtirilganda ko'chirma gapdagi fikr saqlanib, uning shakli o'zgaradi xolos. Nutq o'zlashganda muallif gapi va ko'chirma gaplar *que, si, de* hamda bog'lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar orqali bog'lanadi. Gaplar o'zlashtirilganda ularning shakli soddalashib, ixcham xolga keladi va tushunish uchun osonlashadi. Muallifning fikrga bo'lgan shaxsiy munosabati ifodalanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har ikkala tilda ham so'roq gaplar tuzish va ma'lumotlarni savollar orqali baholashning o'ziga xos usullari mavjud. Ushbu tuzilmalar va xususiyatlarni tushunish ikkala tilda ham samarali muloqot qilish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N., N., Xolova Sh.D., "Etude du nom et de l'adjectif dans les cours du français", Boukhara, 2014
2. Abdurahmonov G'.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Ho'jayev A.R. O'zbek tili grammatikasi. 2-jild. Sintaksis. O'zbekiston "Fan" nashriyoti. Toshkent-1976.
3. Bobokalonov, Odilchokh Ostonovich, and Madinabonou Bakhodirovna Oumarova. "La categorie grammaticale du verbe en francais." Innovative Development in Educational Activities 2.6 (2023): 252-255.
4. G'ulomov A.G', Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili " O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent-1965.
5. Sayfullayev, Bakhshillo. "Fransuz tilida o'zga nutq va uning ifoda usullari." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 31.31 (2023).